OECD tomonidan 2014-yilda nashr etilgan Mapping Channels to Mobilize Institutional Investment in Sustainable Energy nomli tahliliy hujjatda esa institutsional investorlarni barqaror energetika loyihalariga jalb qilish mexanizmlari tahlil qilingan. Unda xususan, pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari va davlat mulk fondlarining ishtiroki "yashil" sektorning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi, degan xulosaga kelinadi.

OECDning yana bir muhim hujjati – Green Investment Banks: Scaling up Private Investment in Low-carbon, Climate-resilient Infrastructure hisobotida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan "yashil" banklar modellarining xususiyatlari ochib berilgan. Unda "green bank"lar orqali xususiy sektor investitsiyalarini rag'batlantirish, kredit risklarini kamaytirish va ekologik loyihalarni moliyalashtirishning samarali yondashuvlari keltirilgan.

O'zbekistonning o'zida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-sonli qarorda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo'nalish etib belgilangani – yashil moliyalashtirishning rasmiy bosqichi boshlanganini bildiradi.

Bundan tashqari, Davlat dasturi loyihasi muhokamasida yashil iqtisodiyot tamoyillarining qonunchilik darajasida mustahkamlanishi, yashil obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi (shu jumladan, suveren xalqaro obligatsiyalarni 2023-yil London fond birjasida joylashtirish), moliyalashtirishda sukuq, uglerod birjalari, YieldCo, yashil banklar kabi moliyaviy vositalardan foydalanish bo'yicha tashabbuslar keng ko'lamli islohotlar asosida olib borilayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2025-yilda "yashil" moliyalashtirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqilishi va xalqaro moliyaviy institutlardan 250 million dollargacha grant va imtiyozli kreditlar jalb qilinishi kutilmoqda. Bu esa milliy darajada "yashil" sektorni institutsional asosda shakllantirish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIAYS

Ushbu tadqiqotda axborotlar asosan xalqaro va milliy darajadagi ochiq statistik ma'lumotlar bazalari, rasmiy hujjatlar, tahliliy hisobotlar va ilg'or amaliy tajribalar asosida jamlandi. Ma'lumotlar kontent tahlili usuli orqali qayta ishlanib, taqqoslash, tizimlashtirish va mantiqiy tahlil usullari yordamida baholandi hamda mavzuga oid asosiy yo'nalishlar ajratib ko'rsatildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror rivojlanish (ing. sustainable development) tushunchasi 1992-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit va Taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (UNCTAD) tashkil etilgandan beri xalqaro hamjamiyat oldidagi ustuvor maqsadlardan biri sifatida shakllangan. So'nggi o'n yilliklarda dunyo mamlakatlarining aksariyati ushbu yo'nalishda milliy strategiyalarni ishlab chiqib, barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan qator islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Shunga qaramay, xalqaro tashkilotlarning ko'magiga qaramasdan, ko'plab mamlakatlarda global iqtisodiy va ekologik muammolar hanz dolzarbligicha qolmoqda.

Xususan, oxirgi yillarda dunyo miqyosida ro'y bergan yirik inqirozlar – energetika, oziq-ovqat ta'minoti va moliyaviy tizimdagi beqarorliklar – barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni yanada murakkablashtirdi. Shu sababli, olimlar sayyoramiz ekologik chegara darajalaridan oshib borayotganini ta'kidlab, bu boradagi xavflarga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bu esa barqaror rivojlanish masalasini nafaqat iqtisodiy, balki global ekologik xavfsizlik masalasi darajasiga olib chiqmoqda.

Hozirgi vaqtda hukumatlar o'z mamlakatlarida tabiiy resurslarning cheklanganligi va atrof-muhitga bo'lgan bosimni hisobga olgan holda, bu o'zaro bog'liq inqirozlarga innovatsion yechim topishga intilmoqda. Shu nuqtai nazardan, "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi milliy siyosatni shakllantirishda va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishda muhim katalizator vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Bu iqtisodiy model ekologik barqarorlikni, samarali resurslardan foydalanishni va inson farovonligini uyg'unlashtirgan holda, iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

2012-yilda o'tkazilgan "Rio+20" konferensiyasida ishtirok etgan davlatlar "yashil" iqtisodiyotni barqaror rivojlanishga erishishning muhim asosi sifatida e'tirof etgan bo'lib, uning inklyuziv tabiatini alohida ta'kidlashdi. Jumladan, u iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy tenglikni kuchaytirish, qashshoqlikni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim rol o'ynashi ta'kidlandi.

So'nggi yillarda "yashil" iqtisodiyotni ilgari surish va "yashil" o'sish tashabbuslarini ro'yobga chiqarish maqsadida bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar tashkil etilib, ular turli dasturlar va strategik yo'nalishlar ustida faoliyat olib bormoqda. Jumladan:

- BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP),
- BMT Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti (UNDESA),
- BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD),
- Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO),
- Jahon banki,
- Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD),
- Global "Yashil o'sish" instituti (GGGI),
- Yashil iqtisodiyot bo'yicha hamkorlik tarmog'i (GEP),
- Yashil o'sish bilimlar platformasi,
- Yashil iqtisodiyot koalitsiyasi (Green Economy Coalition),

Yashil o'sish yetakchilari forumi va boshqa tashabbuslar mavjud bo'lib, ular mavjud bilim va tajribalarni almashish, xalqaro miqyosda salohiyatni oshirish hamda ekologik moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'lida muhim hissa qo'shmoqda.

Ushbu tashkilotlarning sa'y-harakatlari "yashil" moliyalashtirish vositalari, masalan, "yashil" obligatsiyalar, "yashil" kreditlar, ESG reyting tizimlari va barqarorlikka oid hisobotlarning joriy qilinishi orqali yanada samarali amalga oshirilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, global miqyosda barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi moliyaviy infratuzilmani shakllantirishga zamin yaratmoqda.

O'zbekistonda ham aholining barqaror ortib borayotgani, suv resurslari tanqisligining kuchayib borishi, ayniqsa qishloq xo'jaligi tarmoqlarida muammoli vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Bu esa go'sht, kartoshka, o'simlik yog'i, shakar mahsulotlari kabi asosiy iste'mol tovarlariga bo'lgan ichki ehtiyojning to'liq qondirilmasligi, natijada ushbu mahsulotlar importining yildan-yilga ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, energetika tizimidagi muvozanatsizliklar, ya'ni kollaps xavfi ham yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish zaruratini kun tartibiga olib chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining rasmiy prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib mamlakatda 7 milliard kub metr suv yetishmovchiligi yuzaga keladi. Bu raqam O'zbekiston uchun ekologik barqarorlikka tahdid soluvchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, Germaniyaning "Statista" tahliliy statistik kompaniyasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2040-yilga kelib dunyoning 44 ta mamlakatida suv tanqisligi ekstremal darajada yuqori (>80) bo'lishi kutilmoqda. Afsuski, bu ro'yxatda Markaziy Osiyo davlatlari ham qayd etilgan.


Yuqorida qayd etilgan xavf-xatarlar sababli bugungi kunda xalqaro tashkilotlar va milliy hukumatlar tomonidan iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish borasida amaliy chora-tadbirlar boshlab yuborilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarini "yashil" yo'nalishga o'tkazish, resurslardan oqilona



foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Aynan "yashil" iqtisodiyot modelining afzalliklaridan biri – bu resurs tejamkorligini ta'minlagan holda, aholining o'sib borayotgan ehtiyojlariga mos yechimlar taklif eta olishidir. Bu model nafaqat ekologik barqarorlikni kuchaytiradi, balki ijtimoiy muammolarni yumshatish, turmush darajasini yaxshilash, bandlikni kengaytirish va aholining farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, barcha "yashil" yo'nalishdagi loyihalar katta miqdordagi moliyalashtirish mablag'larini talab qiladi. Aksariyat holatlarda bu kabi loyihalar yuqori riskli, innovatsion va noan'anaviy yondashuvlarga asoslanadi. Shu sababli, jahon moliyaviy tizimida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlovchi turli moliyaviy vositalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: "yashil" kreditlar, "yashil" obligatsiyalar, "yashil" investitsiya fondlari, uglerod birjalari, aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (ABS), daromadli kompaniyalar (Yieldco), shuningdek, "yashil" banklar (1-rasm).



1-rasm. "Yashil" iqtisodiyotga yo'naltirilgan moliyaviy vositalarning turlari.

"Yashil" kreditlar – bu har qanday turdagi qarz mablag'larini o'z ichiga oluvchi moliyaviy vosita bo'lib, faqat ekologik barqarorlik mezonlariga javob beruvchi yangi yoki mavjud "yashil" loyihalarni to'liq yoki qisman moliyalashtirish uchun ajratiladi. Bunday kreditlar asosan ekologik samaradorlik, energiya tejamkorlik, chiqindilarni qayta ishlash, iqlimga moslashuv yoki tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan loyihalarga yo'naltiriladi.

"Yashil" kreditlar orqali moliyalashtiriladigan loyihalarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (masalan, quyosh, shamol, biomassa, geotermal energiya) ishlab chiqarish, tarqatish va ushbu sohadagi texnologiyalarni yaratish;
- Energiya samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan loyihalar: energiya tejovchi binolar, akkumulyator tizimlari, markazlashtirilgan isitish, "aqlli" energiya tarmoqlari va zamonaviy qurilmalar ishlab chiqish;
- Atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilish va nazorat qilish: issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, tuproqni rekultivatsiya qilish, chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- Tabiiy resurslar va yer-suvdan foydalanishning barqaror boshqaruvi: suv resurslarini tejash, ekotizimni tiklash, biologik xilma-xillikni asrash, ekologik toza mahsulotlar va texnologiyalarni joriy etish.

"Yashil" obligatsiyalar – bu har qanday turdagi obligatsiyalar bo'lib, ularni joylashtirishdan tushgan mablag'lar faqat "yashil" loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi. Bu obligatsiyalar orqali moliyalashtiriladigan sohalar, odatda, "yashil" kreditlarga qo'yiladigan talablarga mos keladi. "Yashil" obligatsiyalar ham moliya bozorida qat'iy daromadli qimmatli qog'ozlar qoidalariga muvofiq tartibga solinadi.



Ushbu obligatsiyalar pul oqimini shakllantirish mexanizmi bo'yicha quyidagi turlarga ajratiladi:

- Standart "yashil" obligatsiyalar – ulardan tushgan daromad ekologik barqarorlikni ta'minlovchi loyihalarga yo'naltiriladi;
- Daromadga bog'langan "yashil" obligatsiyalar – obligatsiyalar garovsiz chiqariladi va ularning daromadlari to'lov kafolati sifatida xizmat qiladi;
- Loyiha asosidagi "yashil" obligatsiyalar – muayyan "yashil" loyihalarning amalga oshirilishiga bog'langan bo'lib, obligatsiyalarning muvaffaqiyati loyihaning natijadorligiga bog'liq;
- "Yashil" sek'yuritizatsiya obligatsiyalari – bir yoki bir nechta ekologik loyihalarga asoslangan, aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (masalan, ipoteka asosida chiqarilgan obligatsiyalar) orqali moliyalashtiriladi.
- Verengo N. va Kamenkov A. muallifligidagi tadqiqotda "yashil" obligatsiyalar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflangan [2]:
 - Iqlim obligatsiyalari (Climate Bonds) – iqlim o'zgarishini yumshatish yoki unga moslashuvga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtiradi;
 - Ko'k obligatsiyalar (Blue Bonds) – suv resurslarini boshqarish va suv ekotizimlarini himoya qilishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi;
 - Ekotizim obligatsiyalari (Ecosystem Green Bonds) – ekologik barqarorlikni ta'minlash va ekotizimni saqlash tashabbuslarini moliyalashtiradi;
 - O'rmon obligatsiyalari (Forest Bonds) – o'rmon xo'jaligi va biologik xilma-xillikni asrashga qaratilgan loyihalar;
 - Ijtimoiy yo'naltirilgan obligatsiyalar (Social Impact Bonds) – ijtimoiy ta'sirni kuchaytiruvchi, aholining farovonligini oshirishga qaratilgan loyihalar;
 - Tabiatni muhofaza qilish obligatsiyalari (Conservation Impact Bonds) – tabiatni asrashga yo'naltirilgan, uzoq muddatli barqarorlikni maqsad qilgan loyihalar;
 - Rivojlanish obligatsiyalari (Development Impact Bonds) – rivojlanayotgan mamlakatlar va mintaqalar uchun barqaror taraqqiyot loyihalarini moliyalashtiradi;
 - Biologik xilma-xillikni asrash obligatsiyalari (Wildlife Impact Bonds) – flora va fauna muhofazasiga qaratilgan ekologik tashabbuslarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki, "yashil" obligatsiyalarni muvaffaqiyatli chiqarish uchun emitent yuqori moliyaviy intizom, ishonchli kredit tarixiga ega bo'lishi, shuningdek, investitsiya jarayonida faol ishtirok etuvchi mutaxassislarning yuqori malakasi talab etiladi. Ayni paytda, atrof-muhitga yuqori darajada zarar yetkazadigan yoki sanoatni rivojlantirish strategiyasida ustuvor bo'lmagan sohalarida faoliyat yurituvchi kompaniyalarga bunday obligatsiyalarni chiqarishga ruxsat berilmaydi.

Aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar (ABS) ham "yashil" obligatsiyalar toifasiga kiradi. Bu qimmatli qog'ozlar bozor muomalasida sotiladigan vosita bo'lib, ularning asosiy aktivlari sifatida quyosh fotoelektrik panellari, shamol turbinalari yoki boshqa qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari xizmat qiladi. Elektr energiyasi uchun to'langan to'lovlar esa ABS bo'yicha pul oqimini kafolatlaydigan manba hisoblanadi. Bunday qimmatli qog'ozlar orqali chiqarilgan obligatsiyalar kredit riskini kamaytiradi va kompaniyalarga, ayniqsa institutsional investorlar – pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari va yirik investitsiya fondlarining resurslariga kirish imkoniyatini yaratadi. Buning evaziga investorlar esa ekologik barqarorlikka asoslangan, ishonchli daromad keltiruvchi loyihalarda ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

"Yashil" fondlar – bu pay asosidagi investitsiya fondlari bo'lib, ular standartlashtirilgan "yashil" aktivlar orqali ekologik mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan kompaniyalarga kapital yo'naltiradi. Ular atrof-muhit muhofazasi, energiya samaradorligi va barqaror rivojlanish sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalarga investitsiya qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun birinchi "yashil" obligatsiyalar fondi 2017-yilda Jahon banki guruhining Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) va Fransiyaning Amundi investitsiya kompaniyasi hamkorligida tashkil etilgan.

Uglerod birjalari (Emissiya savdo tizimlari – ETS) esa issiqxona gazlari chiqindilari bo'yicha cheklovlar orqali "yashil" iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi yana bir muhim mexanizmdir. Dunyodagi ayrim rivojlangan davlatlarda karbonat angidrid (CO₂) chiqindilarining darajasi rivojlanayotgan mamlakatlarnikidan ancha yuqori. Shu sababli, kam emissiyaga ega mamlakatlar o'zlarining kvotalarini maxsus birjalarda sotuvga qo'yishadi, emissiyasi yuqori bo'lgan davlatlar esa bu kvotalarni sotib olish orqali o'z ko'rsatkichlarini muvozanatlashtiradi. 2023-yilda jahondagi uglerod bozorida hukumatlar ushbu mexanizm asosida 104 milliard AQSh dollari miqdorida daromad ko'rgan [3].

Daromadli kompaniyalar (Yieldco) – bu qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan barqaror daromad keltiruvchi loyihalar portfelini shakllantirishga mo'ljallangan, ochiq turdagi kompaniyalardir. Yieldco kompaniyalari o'z aksiyalarini investorlarga taklif qilish orqali moliyalashtiriladi. Ularning asosiy daromad manbasi ishlab chiqarilgan elektr energiyasi evaziga keladigan to'lovlardan shakllanadi. "Daromadli" deb nomlanishiga sabab – kompaniya har chorakda foydaning katta qismini dividend sifatida o'z aksiyadorlariga



tarqatadi. Odatda bunday kompaniyani shakllantirish uchun zarur bo'lgan aktivlar hajmi o'rtacha 500 million dollarni, IPO (birlamchi ommaviy taklif) qiymati esa 150–200 million dollarni tashkil etadi [4].

Daromadli kompaniyalarning muvaffaqiyatli faoliyati birinchi navbatda institutsional muhit, ishonchli huquqiy bazaning mavjudligi va investitsion xavfsizlik darajasiga bog'liq. Faqatgina yirik va uzoq muddatli strategiyaga ega bo'lgan investorlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan diversifikatsiyalangan investitsiya portfellarini shakllantirishga tayyor bo'lgan hollarda, Yieldco modeli o'zining yuqori samaradorligini namoyon eta oladi.

“Yashil” bank – bu, odatda, davlat mablag'lari yoki xalqaro, mintaqaviy va milliy moliyaviy institutlar tomonidan jalb qilingan resurslar asosida shakllantiriladigan moliya-kredit muassasasidir. Ushbu turdagi banklar, birinchi navbatda, ekologik barqarorlikni ta'minlovchi loyihalarni amalga oshirish uchun xususiy sektorga moliyaviy ko'mak ko'rsatish orqali “yashil” bozorlar uchun qo'shimcha investitsiyalar oqimini ta'minlaydi. Ahamiyatlisi shundaki, alohida yangi moliyaviy institutni tashkil etish talab etilmaydi – mavjud rivojlanish banklarini ekologik infratuzilmani qo'llab-quvvatlash, energiya tejamkorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qilishga ustuvor yo'naltirish orqali ham “yashil” investitsiya banki sifatida qayta ixtisoslashtirish mumkin.

Bunday banklarning asosiy vazifalaridan biri – “yashil” loyihalarning investitsiyaviy risklarini kamaytirish va davlatning cheklangan mablag'laridan samarali foydalangan holda xususiy investorlarni jalb etish mexanizmlarini yaratishdir. An'anaviy tarzda ular qayta tiklanadigan energiya manbalariga e'tibor qaratadi, biroq ular o'z faoliyatini barqaror infratuzilmani rivojlantirish, ekologik qurilish, bioguruh xilma-xilligini saqlab qolish va boshqa ekologik yo'nalishlardagi loyihalarni ham moliyalashtirishga yo'naltirishi mumkin.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tadqiqotlarida ta'kidlanishicha [5], “yashil” banklar moliyaviy zahiralarni shakllantirish, kredit yo'qotishlarini qoplash, sug'urta va risklarni boshqarish mexanizmlari sifatida ham faoliyat yuritadi. Bu esa, o'z navbatida, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga hamda ushbu yo'nalishda xususiy kapitalni jalb qilishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish jarayoni, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotining muhim bo'g'ini hisoblangan energetika tizimini ekologik tamoyillar asosida modernizatsiya qilish bilan boshlanmoqda. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarini va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–57-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu hujjatda, ayniqsa, mamlakatda “energiya sarfi boshqa davlatlarga nisbatan ikki barobar yuqori” ekani ta'kidlanib, yashil energiyaga o'tish zarurligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

Qarorga muvofiq, 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, iste'molchilarni muqobil energiyaga o'tkazish va energiya tejamkor texnologiyalarni keng miqyosda tatbiq etish orqali qo'shimcha 5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilishi va 4,8 milliard kub metr tabiiy gaz tejalishi rejalashtirilgan [6]. Bu, bir tomondan, ichki ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan gaz miqdorini kamaytirishga, ikkinchi tomondan esa karbonat angidrid (CO₂) gazining atmosferaga chiqarilishini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Yashil energiyaga o'tish strategiyasini moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston umumiy qiymati 15,4 milliard AQSh dollari bo'lgan moliyaviy resurslarni yo'naltirishni rejalashtirmoqda. Ushbu mablag'lar energetika, sanoat va transport sohalarida “yashil” loyihalarni amalga oshirish, uglerod neytralligiga erishish va barqaror rivojlanish maqsadlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

O'zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy choralar qatorida, tijorat banklari tomonidan quyosh panellarini xarid qilish uchun ajratilayotgan kreditlar alohida e'tiborga molikdir. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunga kelib ushbu maqsadda ajratilgan kreditlar miqdori 227,6 milliard so'mdan oshgan. Umuman olganda, 1,1 milliard AQSh dollari miqdoridagi tijorat banklarining kredit mablag'lari, 610 million dollarlik korxonalar tomonidan jalb etilgan o'z mablag'lari, 150 million dollarlik xalqaro moliyaviy institutlar resurslari va 100 million dollarlik davlat byudjeti mablag'lari “yashil” energetika yo'nalishida foydalanilishi rejalashtirilgan. Ta'kidlash lozimki, byudjetdan ajratilgan mablag'lar, asosan, davlat tashkilotlarini muqobil energiya manbalariga o'tkazishga yo'naltiriladi.

So'nggi uch yil davomida O'zbekiston hududlarida umumiy quvvati 3,5 gigavatt bo'lgan 16 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi, shuningdek, 35 ta kichik gidroelektr stansiya (GES) barpo etildi. Sanoat tarmog'ida esa “yashil energiya” sertifikatlash tizimi joriy qilindi. Aholi darajasida esa quyosh panellari o'rnatgan xonadonlar soni 60 mingdan oshdi [7].

Mazkur yirik investitsiya loyihalari xorijiy investorlar tomonidan moliyalashtirilmoqda. Jumladan, Saudiya Arabistonining “ACWA Power”, Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar”, “Tepelen Group AG”, “Solar Power Shine”, Fransiyaning “Total Energies” va “Vitalia”, Xitoyning “China Energy Overseas Investment”, “China Datang Overseas Investment”, shuningdek, “Universal Energy” kompaniyalari ushbu loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etmoqda. Ushbu loyihalarning umumiy qiymati 24 milliard 374 million AQSh dollarini tashkil etib, barcha mablag'lar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan qoplanmoqda.



Rejalashtirilgan tizimli ishlarga muvofiq, 2026-yilga kelib O'zbekistonda umumiy quvvati 9947 megavatt, 2030-yilga borib esa 20 000 megavattidan ortiq bo'lgan quyosh va shamol elektr stansiyalari to'liq quvvatda faoliyat yuritishi kutilmoqda. Bu orqali yillik 50 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi. Ushbu ko'rsatkichga erishish natijasida har yili 15 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi, atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdori esa 21 million tonnaga kamayadi. Natijada, 2030-yilga kelib mamlakatda ishlab chiqariladigan umumiy elektr energiyasining 40 foizi qayta tiklanadigan energiya manbalariga to'g'ri keladi [8].

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda "yashil" kreditlar bilan cheklanib qolmasdan, boshqa innovatsion moliyaviy vositalar ham qo'llanilmoqda. Bular qatoriga "yashil" va "ko'k" obligatsiyalar, yashil sug'urta, yashil byudjet, "sukuk" (islomiy moliya vositasi) kabi instrumentlar kiradi. 2022-yilda global miqyosda "yashil" obligatsiyalar emissiyasi 1 trillion AQSh dollaridan oshdi. 2023-yil 6-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi ilk bor 4,25 trillion so'm miqdoridagi "yashil" suveren xalqaro obligatsiyalarni hamda 660 million dollarlik xalqaro obligatsiyalarni London fond birjasida muvaffaqiyatli joylashtirdi [9].

Shuningdek, "yashil" korporativ obligatsiyalarni chiqarish tartib-qoidalariga 2024-yil 7-iyunda Istiqlolli loyihalar milliy agentligi direktori tomonidan tasdiqlangan "Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatidan o'tkazish qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi buyrug'ida aks ettirilgan [10].

O'zbekistonda yashil energiya sohasidagi yetakchi xorijiy investorlardan biri bo'lgan Saudiya Arabistonining ACWA Power kompaniyasi 2021-yilda 747 million AQSh dollari miqdorida sukuq (islomiy obligatsiyalar) emissiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Bu moliyaviy vosita, kompaniya tomonidan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yashil energetika loyihalarining moliyaviy asosini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hozirgi global tendensiyalarda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda suveren va korporativ sukuq bilan bir qatorda suveren yashil sukuq va korporativ yashil sukuq vositalaridan ham faol foydalanilmoqda.

Yashil moliyalashtirish sohasida yetarlicha resurs jalb etish va energiya sohasida o'zgarishlar qilish uchun energiyani tejashga rag'batlantiruvchi mexanizmlarni kengaytirish, shu jumladan tezkor amortizatsiya tartibini joriy qilish zarur. Chunki texnologiyalarning muntazam yangilanib borishi nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiladi. Bu borada Singapur tajribasi – texnologik innovatsiyalar va yashil taraqqiyotning uyg'unlashgan modeli sifatida – chuqur o'rganishga arzigulik namuna sanaladi.

So'nggi tashabbuslarni inobatga olgan holda, 2025-yil 1-dekabr qadar O'zbekistonda yashil moliyalashtirish bo'yicha Milliy dastur ishlab chiqilishi ko'zda tutilmoqda. Ushbu hujjat asosida, milliy darajadagi barcha "yashil" iqtisodiyotga oid loyihalarni moliyaviy, ekologik va institutsional jihatdan baholash tartibi ham ishlab chiqiladi. "Atrof-muhitni muhofaza qilish yili" doirasida esa mamlakat yashil iqtisodiyot, iqlimni asrash va barqaror moliyalashtirish tamoyillarini qonunchilikda mustahkamlashni rejalashtirmoqda.

Bundan tashqari, qiymati 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lgan barcha davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosidagi loyihalar uchun yashil komponentlar va barqaror rivojlanish tamoyillariga moslik mezonlari asosida majburiy tekshiruv o'tkazilishi rejalashtirilmoqda. Ushbu tashabbuslarni Source xalqaro platformasi va PIERS baholash tizimi bilan integratsiya qilingan shaklda amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuningdek, 2025-yilda O'zbekiston "yashil" va past uglerodli rivojlanish loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlardan qariyb 250 million AQSh dollari miqdorida moliyaviy ko'mak olishni rejalashtirmoqda. Bu mablag'lar grantlar va imtiyozli kreditlar ko'rinishida taqdim etiladi. Jumladan:

Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (ETTB) tomonidan 200 million yevro,

Jahon banki tomonidan esa 10 million AQSh dollari ajratilishi ko'zda tutilgan [11].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagicha xulosaga kelish mumkin: O'zbekiston iqtisodiy tizimida "yashil" moliyalashtirishni kengaytirish va barqaror rivojlanishga erishish yo'lida tizimli va uzoq muddatli strategik choralarni amalga oshirish zarur. Quyida ushbu yo'nalishda muhim deb hisoblanadigan asosiy takliflar bayon etiladi:

"Yashil" obligatsiyalar bozorini rivojlantirish: Qayta tiklanuvchi energiya, ekologik toza transport tizimlari, resurs tejovchi infratuzilma kabi yo'nalishlarni moliyalashtirish uchun "yashil" korporativ obligatsiyalar emissiyasini kengaytirish va bozor mexanizmlarini faollashtirish lozim.

Qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalarni kengaytirish: Quyosh, shamol, gidroelektr energiyasi hamda energiya saqlash texnologiyalariga yo'naltirilgan davlat va xususiy sarmoyalarni jalb etish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Barqaror biznes modellarini qo'llab-quvvatlash: Resurslardan samarali foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarish va ekologik texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan startap va innovatsion kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.



“Yashil” kreditlar va “yashil” ipoteka mahsulotlarini joriy etish: Kam uglerodli va ekologik toza obyektlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tijorat banklari uchun maxsus imtiyozli kredit liniyalari va ipoteka mahsulotlarini yaratish kerak.

Ekologik baholash tizimlarini joriy etish: Kompaniyalar va loyihalarning ekologik samaradorligini baholovchi xalqaro standartlarga mos reyting tizimlari va ekologik sertifikatlash mexanizmlarini joriy etish orqali investorlar uchun ochiq va ishonchli axborot maydonini yaratish muhim.

Davlat moliyaviy rag'batlantirish choralari kengaytirish: “Yashil” texnologiyalar va loyihalarni amalga oshiruvchi subyektlar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va grantlarni nazarda tutuvchi rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim.

Ijtimoiy xabardorlikni oshirish va moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish: Jamiyatda, xususan, xususiy sektor va investorlarda “yashil” moliyalashtirishning afzalliklari, global iqlim tahdidlari va barqaror taraqqiyot maqsadlari haqida chuqur tushuncha shakllantirish bo'yicha ommaviy axborot vositalari, seminar-treninglar orqali faoliyat yuritish zarur.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish: “Yashil” texnologiyalar transferi, uglerod chiqindilarini kamaytirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan strategik sherikliklarni yo'lga qo'yish va xalqaro tashabbuslarda (masalan, Parij kelishuvi, SDG – Barqaror rivojlanish maqsadlari) faol ishtirok etish orqali milliy siyosatni global tamoyillar bilan uyg'unlashtirish lozim.

Umuman olganda, “yashil” moliyalashtirish mexanizmlarining kompleks rivoji – mamlakatda “yashil” iqtisodiyotga o'tish jarayonining tezlashuvi, ekologik xavfsizlikning ta'minlanishi, hamda iqlim o'zgarishiga moslashish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Yuqorida keltirilgan takliflarni bosqichma-bosqich amalga oshirish O'zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Global Landscape of Climate Finance hisobot. <https://www.climatepolicyinitiative.org/wp-content/uploads/2024/10/Global-Landscape-of-Climate-Finance-2024.pdf>
2. Verengo N., Kamenkov A. “Zelenye” investitsii i perspektivy ikh ispolzovaniya v Respublike Belarus. // Bankovskiy vesnik – may 2018 g. – str. 63–71.
3. State and Trends of Carbon Pricing Dashboard. <https://carbonpricingdashboard.worldbank.org/compliance/revenue>
4. Mapping Channels to Mobilize Institutional Investment in Sustainable Energy [Electronic Resource] / OECD Publications – 2014. pp. 46.
5. Green Investment Banks: Scaling up Private Investment in Low-carbon, Climate-resilient Infrastructure. https://www.oecd.org/en/publications/green-investment-banks_9789264245129-en.html
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–57-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/6385716>
7. Davlat dasturi loyihasi muhokama qilindi. <https://president.uz/uz/lists/view/7839>
8. Mamlakatimizda quyosh, shamol va issiqlik elektr stansiyalarini joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan yirik loyihalar haqida ma'lumot. <https://gov.uz/uz/minenergy/news/view/29602>
9. O'zbekiston Respublikasi ilk marta milliy valyutada “yashil” maqomiga ega suveren xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. <https://www.imv.uz/news/category/yangiliklar/post-1621>
10. Yashil korporativ obligatsiyalar qanday chiqariladi. https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/yashil_korporativ_obligatsiyalar_qanday_chiqariladi
11. O'zbekiston “yashil” moliyalashtirish bo'yicha milliy dastur ishlab chiqadi. <https://uz.kursiv.media/2025-01-09/uzbekistan-razrabotaet-naczprogrammu-po-zelenomu-finansirovaniyu/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>